

MEHMONDORCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI TASHKIL ETISH

Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich

IPU "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

ORCID:0009-0006-0111-4300

E-mail:jasurberdiyev6834@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqa mehmonxona xo'jaligining mehmondorchilik xizmatlarini amalga oshirishda xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan shartnoma asosida faoliyat ko'rsatganda ma'lum samaradorlikka erishish va mintaqada "Mehmondorchilik klasteri" tashkil etish samarali ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: mintaqa, mehmonxona xo'jaliklari, mehmondorchilik klasteri, mehmonxona xo'jaliklarida samaradorlik, moddiy-texnika asoslari, investitsiya

Аннотация

В данной статье исходят из того, что при реализации гостиничных услуг гостиничного хозяйства региона эффективно достигают определенной эффективности при работе на основе договора с обслуживающими субъектами и налаживают «Кластер гостеприимства» в регионе.

Ключевые слова: регион, гостиничные компании, гостиничный кластер, эффективность гостиничных предприятий, материально-техническая база, инвестиции.

Abstract

In this article, it is based on the fact that in the implementation of hospitality services of the hotel industry of the region, it is effective to achieve certain efficiency when operating on the basis of a contract with service entities and to establish a "Hospitality cluster" in the region.

Keywords: region, hotel companies, hospitality cluster, efficiency in hotel companies, material and technical basis, investment

KIRISH

"Mehmondorchilik klasteri"ni shakllantirish mexanizmi tashkil etish ko'rsatkichlari ularning rivojlanishini belgilovchi muhim moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar sirasiga kiradi. Chunki raqobat sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xo'jaliklari ham o'zining iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini ta'minlab borishi lozim. Bunda aynan rentabellik ko'rsatkichlarini muttasil oshirib yoki barqaror darajada ushlab turish lozim bo'ladi. Bunda uni ko'paytirishning ko'pgina yo'llaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ulardan biri - ichki imkoniyatlarni aniqlash va ishga solish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tufayli hozirgi paytda har bir "Mehmondorchilik klasteri"ni shakllantirish mexanizmi tashkil etish, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan nazariy va amaliy tadbirlarni ishlab chiqish va undan amaliyotda keng foydalanish lozimligini taqozo

qiladi. Ushbu obyektiv zaruratdan kelib chiqib, Qashqadaryo shahrida joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarning bir qismida rentabellik ko'rsatkichlarining holati va ularni oshirish yo'llarini qarab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki ushbu ko'rsatkich zahirida hamma faoliyat o'z ifodasini topadi. Jumladan, bular sotish hajmining ko'payishini, subyektda tejamkorlik rejimining amal qilishini, xarajatlarning ham me'yor darajasidan oshib ketmasligini, barcha mulklardan samarali foydalanish lozimligi kabilarni qamrab oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Mehmondorchilik klasteri”ni shakllantirish mexanizmi tashkil etish masalalari ko'plab xorijlik olimlarning, xususan, mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, D.S.Ushakov, V.G.Fedsov va boshqalar¹ tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda turizm sohasi, uning tarkibiy qismi bo'lgan “Mehmondorchilik klasteri”ni shakllantirish mexanizmi tashkil etish imkoniyatlarini oshirish muammolarini tadqiq qilish bilan N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.K.Pardayev va A.N.Xalikulov kabi iqtisodchi olimlar shug'ullanmoqdalar².

Ushbu iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida turizm sohasi va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o'ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda mehmonxona xo'jaligi faoliyatiga oid masalalar turizmning infratuzilmasi sifatida qarab chiqilgan. Sohada xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalalari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

METODOLOGIYA

“Mehmondorchilik klasteri”ni shakllantirish mexanizmi tashkil etish oshirish imkoniyatlarining o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish doir tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, mehmondorchilik xizmatlarini amalga oshirish xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan shartnoma asosida faoliyat ko'rsatgandan ko'ra, turli mulk shaklidagi “Mehmondorchilik klasteri”i ancha samarali. Bunga nisbatan esa

¹Kotler F., Bouen Dj., Meykens Dj. Marketing. Gostepriimstvo i turizm. / Per. s angl. – M.: YONITI, 1998., Uoker Dj. Vvedenie v gostepriimstvo. Ucheb. Pособie / Per. s angl. – M.: YONITI, 1999., Ходорков Л.Ф. Мировое гостиничное хозяйство. – М.: 1991., Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – С. 637.

²Tuxliyev N., Abdullaeva T. Ekologicheskiy turizm: sushnost, tendensiya i strategiya razvitiya. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: – 2006. – S. 415, Pardaev M.Q. va boshqalar. Ekologik turizm asoslari. – T.: “Navro'z” nashriyoti, 2015. – 96 b. Pardaev M.Q., Ataboev R. Turizm asoslari. – Samarqand: SamISI – 2006. – 78 b. Hamidov O.H. O'zbekistonda ekologik turizmi rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dokt. diss.avtoref. – Samarqand, 2017. – 68 b.

xususiy mulkka asoslangan “Mehmondorchilik klasteri” eng samarali ekanligi aniqlandi. Buning ketma-ketligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

Ko‘rinib turibdiki, mehmonxona xo‘jaligining mehmondorchilik xizmatlarini amalga oshirishda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar bilan shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatganda ma’lum samaradorlikka erishiladi. Ammo ushbu usulga nisbatan turli mulk shaklidagi “Mehmondorchilik klasteri” ancha samarali ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ushbu klasterga nisbatan xususiy mulkka asoslangan “Mehmondorchilik klasteri” eng samarali ekanligi aniqlandi.

Mintaqada mehmondorchilik klasteriga qanday xizmatlarni kiritish lozimligi ham tanlab olindi. Chunki, bunday xizmatlarni ko‘rsatuvchi subyektlarning aksariyat qismi hozirgi paytda asosan o‘z mulkiga tayangan holda har biri alohida faoliyat ko‘rsatadi. Shu tufayli mazkur xizmatlar turiga qanday xizmatlarning kirishini aniqlash ham muhim masalalardan biridir. Kuzatuvlarimiz ko‘rsatdiki, mehmondorchilik jarayonida ko‘rsatiladigan xizmatlarning asosiy elementlari quyidagi yo‘nalishlardan iborat ekan. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirildi (1-rasm).

Mazkur rasmda mehmonlarga ko‘rsatiladigan deyarli barcha xizmatlarning turlari keltirilgan. Tadqiqot jarayonida ushbu xizmatlarni ko‘rsatuvchi subyektlar turli mulk egalari bo‘lgandagi holati va bir kishiga qarashli xususiy mulkka asoslangandagi holati qiyosiy tahlil qilindi.



1-rasm. Mehmondorchilik klasterining tashkiliy tuzilmasi¹

Tahlil natijalari ushbu xizmatlar bir kishining mulki bo‘lganda turli mulk egaligiga nisbatan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham samarali ekanligini ko‘rsatdi. Chunki har bir xizmatni ko‘rsatuvchi subyekt mehmonxona buyurtmasiga asosan xizmat ko‘rsatganda xizmatning tannarxiga o‘zining foydasini va boshqa to‘lovlarni kiritgan holda qo‘shib hisoblaydi va mos ravishda ushbu qiymat mehmonxonadan yoki mehmonlarning o‘zlaridan undirib olinadi. Agar ushbu xizmatlar mehmonxonaning o‘z ixtiyorida bo‘lsa, faqat tannarxini to‘laydi, qolgan qismi mehmonxonaning o‘ziga foyda bo‘lib qoladi. Natijada mehmonlarga ko‘rsatiladigan xizmat turi ham juda arzonga tushadi. Bu esa turistlarning o‘zlariga

¹ Muallif ishlanmasi..

ham foyda bo'ladi, yo'llanma narxi arzonlashadi va mos ravishda ijtimoiy samaradorlikni ta'minlaydi. Turistlarni jalb qiladigan yana bir omil – yo'llanma narxining nisbatan arzonligidir. Ammo kelgandan keyin turli xizmatlarni ko'rsatish orqali ko'proq mablag'ini olib qolish masalasi o'ta muhimdir (1-jadval).

Jadvaldagi ma'lumotlarning hisob-kitobi quyidagicha amalga oshirildi. Masalan, mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning umumiy samaradorligini va unga ta'sir etuvchi omillar hajmini aniqlashda quyidagilarni ko'rish mumkin. Mehmonxonaga kiritilgan investitsiyaning umumiy samaradorligini va unga ta'sir etuvchi omillar hajmini aniqlash orqali mehmonxona qancha daromad olishi mumkinligi qiyosiy o'rganildi. Mehmonxonaga kiritilgan investitsiyaning 130000 mln so'mi 2023-yilga to'g'ri keladi va mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum, ming so'm jami 162,0 ming so'm daromad keltiradi. Mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning 1,0 mlrd. so'm investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligi 5,3 kishiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval

“Sayohat” nomli mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning umumiy samaradorligini va unga ta'sir etuvchi omillar hajmini aniqlash hisob-kitobi¹

T/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda 2022	Hisobot Yilida 2023	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati, foiz
Mehmonxona xizmatlari bilan bog'liq hajm ko'rsatkichlari					
1.	Mehmonxona xo'jaligi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi, mln.so'm	350	450	100	128,5
2.	Mulkdor tomonidan qo'yilgan investitsiyaning umumiy hajmi ² , mln. so'm.	13000	13000	0	100
3.	Hisobot davrida xizmat qilingan (mehmonxonaga joylashtirilgan) mehmonlarning o'rtacha soni, kishi	1400	2000	600	142,8
4.	Mehmonxonada umumiy joylar soni, ta	66	66	0	100
5.	Mehmonxonada band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni, kishi.	6	7	1	116,6
6.	Bir yilda mehmonlarni qabul qilish quvvati, kishi (4q*360 kun)	23760	23760	0	100
7.	1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum, ming so'm. (1q:3q)	250	225	25	90
8.	Mehmonxonada 1 ta o'ringa to'g'ri keladigan mehmonlar soni, kishi (3q:4q)	21	30	9	142,8
9.	1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar soni, ta (4q:5q)	11	9	2	81,8
10.	1,0 mlrd. so'm investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligi, kishi (5q:2q).	4,6	5,3	7	115,2
11.	Mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum, ming so'm (1q:2q)	0,02	0,03	0,01	150

Mehmonxonaning ovqatlantirish hisobidan turistik xizmat hajmi bir kunda z marta ovqatlantirganda faqat nonushta qildirganiga nisbatan 5,5 marta (950,4 / 162,0)

¹ Mazkur jadval “Turon” nomli mehmonxonaning (nomi o'zgartirilib berilmoqda) ikki yillik ma'lumotlari asosida tuzildi.

² Investitsiyalarning qiymatiga mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning dastlabki qiymati va keyingi ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarning ham qo'shib borishi inobatga olindi.

ko'pligini ko'ramiz. Ushbu yo'l bilan turizmning yalpi hududiy mahsulotdagi (YaXM) va mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi ortib boradi. Agar bunga boshqa xizmatlarni ham qo'shadigan bo'lsak, turizmda yaratilgan YaIMning hajmi real olib qaralganda bugungi kunda ham ancha yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Savdo shoxobchasi ham ijaraga berilgan yoki mulk egasi tomonidan tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Agar ijaraga berilsa, mehmonxonaning daromadi faqat ijara haqidagina iborat bo'ladi. Bu bizning misolimizda 85,0 ming so'mni tashkil qiladi. Agar mehmonxonaning o'zi savdoni tashkil qilsa barcha oborotni o'zi kirim qiladi. Bu holda o'rtacha tushum 2145,0 ming so'mga teng bo'ladi. Bu ijara haqiga nisbatan 25,2 marta ko'p demakdir.

Internet va boshqa axborot texnologiyalarini ko'rsatuvchi xizmatlarning bugungi kunda ahamiyati beqiyos. Shu tufayli har bir turistda unga katta ehtiyoj bor. Agar ushbu xizmatni mehmonxonada tashkil qilib, faqat binoni ijaraga bersa, bir kunda o'rta hisobda 85,0 ming so'm foyda qiladi. Agar ushbu xizmatni mehmonxonaning o'zi tashkil qilib, pulni umumiy g'aznaga tushirsa, ushbu xizmatning bir kunlik foydasi 160,0 ming so'mga teng bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'rinib turibdiki, xususiy mulkka asoslangan "Mehmondorchilik klasteri"da barcha foyda summasi turli mulkdagi subyektlarni birlashtirish evaziga tashkil qilingan "Mehmondorchilik klasteri"ga nisbatan 10 barobardan ko'proq foyda qilar ekan. Agar bizning tavsiyalarimiz amaliyotga joriy qilinsa, xususiy mulkka asoslangan "Mehmondorchilik klasteri"da juda katta foydaga erishi mumkinligiga shubha bo'lmaydi. Chunki turizmda yaratilgan mahsulotlarning real baholanishini ta'minlaydi va mos ravishda mamlakat YaIMdagi ulushining oshib borishiga sabab bo'ladi. Zero, hozirgi paytda turizmda yaratilgan ko'pgina mahsulotlar boshqa sohalarda (ovqatlanish, savdo, madaniy, maishiy kabi xizmatlar tarkibida) hisob-kitob qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. Monografiya. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2003. – 256 bet.
2. Pardaev M.Q., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: "Mehnat", 20004. – 488 bet.
3. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. /prof. M.Q.Pardaevning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moliya", 2016. – 504 bet. va h. k.
4. Ergashev T. K., Berdiev J. Q. Theoretical and practical aspects of using modern management methods in the hotel industry //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 849-859.
5. Бердиев, Ж. (2023). Опыт зарубежных стран в развитии малого бизнеса и частного. предпринимательства Евразийский журнал академических исследований , 3 (2 Часть 3), 87-92.

6. Berdiyev, J. (2022). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 832-835.